



## XALQ DEPUTATLARI SHAHRISABZ TUMAN KENGASHI Q A R O R I

2022 - yil 22 - iyul

VI-44-56-4-67-K/22

Shahrisabz tuman hokimligi

### **Shahrisabz tuman mahalliy budjetining 2022-yil 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag'larni yo'naltirish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli qaroriga muvofiq jamoatchilik fikri asosida shakllanadigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman hokimligi qoshida ochilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga mablag' ajratish bo'yicha tuman hokimligini taklifini ko'rib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tomonidan bildirilgan takliflar, fikr va mulohazalardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasiga asosan, xalq deputatlari Shahrisabz tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Tuman hokimligining Shahrisabz tuman mahalliy budjetining 2022-yil 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan tuman hokimligi qoshida ochilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga 1042,0 mln. so'm yo'naltirish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Rustamov, tuman hokimligi moliya bo'limi (A.Bozorov) bilan birgalikda:

mazkur qarorga muvofiq ko'zda tutilgan tadbirlarni o'z vaqtida moliyalashtirish uchun tuman hokimining qaror loyihasini tayyorlash;

ajratilgan maqsadli mablag'larni o'z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o'rganish hamda o'rganish natijalariga ko'ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag'larni tuman mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko'rsin.

3. Tuman g'aznachilik bo'linmasi (D.Asadov) ajratilgan mablag'lar bo'yicha shartnomalarni o'z vaqtida ro'yxatdan o'tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta'minlasin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tuman hokimligi (B.Halimov) bilan birgalikda "Ochiq budjet" tizimi to'g'risida aholini xabardor qilish va ularning ushbu tadbirlarga faol ishtirokini ta'minlash maqsadida joylarda tushuntirish va targ'ibot ishlarini olib borsin.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy

komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Rustamov zimmalariga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Xalq deputatlari tuman Kengashi  
raisi**



**S.A.Xasanov**